

O'ZBEK MUMTOZ (KASBIY) MUSIQA NAMUNLARINING YUZAGA KELISHI

Rajabov Shaxzodbek Baxrom o'g'li

**Urganch Davlat Pedagogika Instituti
San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi**

Matnazarov Amirbek

**Urganch davlat pedagogika instituti
Musika ta'limi yo'nalishi talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11518448>

Annotatsiya: Maqolada milliy mumtoz mumtoz (kasbiy) musiqa namunalarining yuzaga kelishi, ularning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, ustoz-shogirdchilik an'anasi, ashula, yalla, katta ashula, cholg'u kuylari va maqomlarning rivojiga xissa qo'shgan allomalar, bastakorlar faoliyati bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: mumtoz musiqasi, ustoz-shogirdchilik an'anasi, ashula, yalla, katta ashula, doston, cholg'u kuylari va maqomlar.

Mumtoz musiqa ijrochiligi sohasida san'atkorlar "ustoz-shogird"chilik an'anasini yuzaga keltirib, uni qadimdan bevosita qo'llagan holda faoliyat ko'rsatib kelishgan. Ular Markaziy Osiyoning turli vohalaridagi taniqli xonanda, sozanda va bastakorlar bilan o'zaro yaqin aloqalarda bo'lishgan.

Kasbiy musiqaning qadimiy namunalari "navo" (ohang, kuy, musiqa asari), "parda" (cholg'ularda barmoqlar bosilib, tovush chiqradigan joy, musiqa asarining muayyan tovushi yoki tovushlar majmuasi), "doston" (parda ma'nosiga yaqin), (cholg'ularda barmoqlar o'rni, muayyan tovushlar), "roh" (yo'l, kuy yo'li, musiqa asari), "lahn" (kuy, musiqa asari), "qavl" (ashula, she'r bilan aytiladigan musiqa asari), "tarona" (tarannum etmoq, ya'ni, xirgoyi qioib aytiladigan musiqa asarlari), "tasnif" (hamohang kuy, mukammal musiqa asari) kabi hamda boshqa nomlar bilan yuritilgan.

Musiqa yo'llari turli toifa va turkumlarga mujassamlashtirilgan. O'rta Osiyo va Eron xalqlarining arab istilosidan oldingi kasbiy musiqasida mashhur bo'lganlaridan biri Xusravoniylar (shohona, ya'ni eng mukammal musiqa turi) turkumidir. Bu turkumga "Ganji arus" ("Kelinchak ganji"), "Ganji gov" ("Sigir ganji"), "Ganji Faridun" (Faridun ganji), "Kini Siyovush" ("Siyovush uchun qasos") va boshqa yo'llar kirgan. Har bir Xusravoniy ikki qismdan va o'z gavbatida kichik bo'limlardan tuzilganligi hamda bu kuylar ovoz va cholg'ularda ijro etilganligi qayd etiladi.

Bundan tashqari, Borbat tuzgan 7 ta xusravoniy (haftaning 7 kuni), 30 ta lahn (oyning 30 kuni), 360 ta parda (yilning 360 kuniga nisbatan tuzilgan) tizimi ko'plab tilga olinadi. Bu tuzilmalar asosida O'rta Osiyo va Eron xalqlarining qadimiy kosmologik (koinot to'g'risidagi fan) qarashlarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. O'tmishda sharq nota yozuvlari faqat yodda bor bo'lgan musiqa yo'llarini xotiraga yeltirish vazifasini bajarganligi, mukammal nota yozuvlari esa bo'lmaganligi sababli bu qadimiy kuylarning sadolanishini hozirda aniq tasavvur qilish qiyin.

IX asrdan boshlab, O'rta Osiyo va umuman, O'rta va Yaqin Sharqda ijtimoiy va aniq fanlarning rivojlanishi bilan bir qatorda, musiqa ilmi ham keng taraqqiy qila boshladi. Musika ilmining shakllanish va rivojlanish jarayoni buyuk donishmandlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino

hamda ularning izdoshlari Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy va boshqa o'nlab ajoyib musiqashunoslarning nomi bilan bog'liqdir.

O'rta asr musiqashunosligi g'oyat serqirra ilm bo'lib, unda nazariy va estetik masalalar asosiy va yetakchi o'rinni egallaydi. Nazariya bilan estetikaning o'zi ham bir-biridan ajralgan ravishda emas, balki yagona "ilmiy musiqiy"ning turli tomonlari sifatida gavdalanadi. Nazariy jihatdan musiqaning tarkibiy qismlari va ichki tuzilish qonunlari o'rganilsa, estetik tarafdin esa uning mafkuriy va g'oyaviy asoslarini ochib berishda qo'llaniladigan tushunchalar ustida fikr yuritiladi.

O'rta asrlarda yashab o'tgan buyuk qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy (IX – X asr), Abu Ali ibn Sino (XI – asr), Safiuddin Urmaviy (XIII – asr), Abdulqodir Marog'iy (XIV – asr), Abdurahmon Jomiy (XV – asr), Zaynulobiddin Husayniy (XV – asr), Najmiddin Kavkabiyl XVI – asr), Darvish Ali Changiy (XVI – XVII asrlar) va boshqalar Sharq musiqasi nazariyasi asoslarini ishlab chiqishga, uning keyingi izchil rivojlanish jarayoniga salmoqli ulush qo'shdilar. Maqom, uning sho'balari va qismlari insonga turlicha ta'sir qilishini uqtirib o'tishgan. Ushshoq, Navo, Husayniy, Iroq, Dugoh, Buzruk kabi jozibador va ohangdor maqom yo'llari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqasi madaniyatidan o'rin olib, mashhur bo'lgan. Shu bois, o'zbek mumtoz musiqasi minglab yillar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog'onalarga ko'tarilgan va xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan.

Ma'lumki, ularning musiqaga bag'ishlangan ilmiy kitob va risolalarida asosan musulmon Sharqi xalqlarining kasbiy ijodkorlik janrlari, jumladan, maqomotning kelib chiqishi, tarixi, nazariyasi, musiqiy cholg'ular, estetik qarashlar, ijro amaliyoti masalalari yetakchi o'rin tutgan.

Kasbiy musiqasi rivojiga hissa qo'shgan yetuk sozanda, xonanda va bastakorlar.

Kasbiy musiqaning har bir namunasi asrlar davomida ko'plab iste'dodli va yetuk sozanda va xonandalar tomonidan nihoyatda sayqallangan, yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan. An'anaviy ijrochilikning o'ziga xos nuqtai nazaridan O'zbekistonda turli mahalliy ijrochilik maktablari tarixiy rivojlanish sharoitida alohida o'rin tutadi. Maqomchilik, dostonchilik, ashulachilik, sozandachilik kabi o'ziga xos maktablari bilan jilolanadi. An'anaviy san'atimizning ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov shundan ta'riflaydi: "Milliy musiqasi san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg'onadir".

An'anaviy ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda mumtoz musiqasi san'atining butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol, Ota Qiyos, Levi Boboxonov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Sodirxon hofiz Bobosharipov, Matyoqub Xarratov, hamroqul qori Turaqulov, Mamadbuva Sattarov, Madali hofiz, Ergash shoir Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan shoir, Sherna baxshi, Islom Nazar o'g'li, Bola baxshi Abdullaev va keyinchalik ularning shogirdlari mumtoz musiqasi san'atimiz xazinasini o'zlarining maqomlari, dostonlari, katta ashula va suvorolari bilan boyitdilar. An'anaviy ijrochiligimizda har birlari bir-biriga o'xshamagan ajoyib ijro uslublarini va yangidan-yangi asarlarni ham yaratdilar. Sodirxon hofiz ijro etgan "Ushshoq" "Sodirxon Ushshog'i" nomi, "Bozirgon", "Oshiq Mahmud" dostonlari Bola baxshi nomi, "Yovvoyiy Chorgoh" katta ashulasi Mamadbuva va Boltaboy hofizlarning

nomlari bilan mashhur bo'lib ketgan. hoji Abdulaziz Abdurasulov bastalagan "Guluzorim", "Beboqcha" ashulalari, Jo'raxon Sultonov bastalagan va o'zi ijro etgan "Guluzorim qani", "Naylayin" ashulalari mumtoz san'at namunalari qatori musiqiy xazinamizdan o'rin olgan. Ularni ardoqlash, saqlash, o'rganish va o'zlashtirish yosh avlodimizning muqaddas burchi deb umiddamiz. Demak, estetik sezgilarimiz rivojida, go'zallikni, badiiy so'z qadriyatini, ona tilimiz boyliklarini va musiqiy shevani his qilishimizda mumtoz musiqaning o'rne beqiyosdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda zavq bilan tinglanayotgan, maroq bilan aytilayotgan ashula, yalla, katta ashula, doston, cholg'u kuylari va maqomlar o'zbek kasbiy musiqasining yetuk janrlari hisoblanadi. Xalqimiz va uning namoyandalari yaratgan ana shu ma'naviy boyliklarimiz butun o'zbek xalqi madaniy merosi, qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Manbalarga ko'ra professional (ustozona) san'at bizning hududlarimizda birinchi asrlarda yuzaga kelgan va rivojlangan. Kasbiy musiqa xalq musiqa ijodi namunalari negizida va ijrochilik madaniyatini rivoji, keyinchalik Sharq mumtoz she'riyati shakllanishi asosida tashkil topgan. Mumtoz musiqa deganda o'zbek xalqiga mansub, uning yetuk sozanda-bastakorlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan musiqa san'ati namunalari (aytim-ashula va cholg'u musiqalari) ko'zda tutiladi.

References:

1. Fitrat A. Uzbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993 y.
2. Rajabov.I. Maqom asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent yangi asr avlodi
3. Ugli, R. S. B. (2023). Gender characteristics in music pedagogy. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11).
4. Rajabov, S. (2024). O'smirlarda gender yondashuvi asosida mumtoz musiqaga qiziqishni oshirish. Молодые ученые, 2(14), 132–134. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/32123>
5. Rajabov, S. (2024). Increasing interest in classical music based on gender approach of university school teenagers. в solution of social problems in management and economy (T. 3, Выпуск 5, сс. 155–158). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11296333>
6. Rajabov, S. (2024). O'zbek mumtoz musiqasining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'quvchi- yoshlarni estetik tarbiyalashdagi muhim ahamiyati. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(1), 96–99. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/26412>
7. Rajabov, S. (2023). Mumtoz asarlarni o'rganishda xonandalik ovozi va uning kuylash texnikasi ustida ishlash. Молодые ученые, 2(11), 4–9.
8. Бендас Т.В. Гендерная психология: Учебное пособие. – Санкт-Петербург: Питер, 2006. – 293 с
9. Rajabov, S. (2024). O'zbek mumtoz musiqasining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'quvchi- yoshlarni estetik tarbiyalashdagi muhim ahamiyati. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(1), 96–99. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/26412>